

UDK:494.3

“ALPOMISH” DOSTONI TARKIBIDA QO‘LLANGAN IBORALARNING SHAKL VA MA’NO MUNOSABATIGA KO‘RA TURLARI**Abdusamatova Nozanin Azim qizi,***Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali**O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 4-bosqich talabasi**E-mail: nabdusamatova511@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologik birliklar, ularning tilshunoslikdagi o‘rni, iboralarning ifoda plani va o‘zbek tilida mavjud frazemalarning dostonlar tarkibida qo‘llanish xususiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada mashhur o‘zbek xalq qahramonlik eposi “Alpomish” dostoni tahlil qilish uchun asos sifatida olingan. Maqolada mazkur doston tarkibida uchraydigan iboralar so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarga bo‘linib, misollar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Frazeologik birlik, kulturologiya, mentalitet, sema, obrazlilik, doston, semiotika, sinonim, omonim, antonim, paronim.

Аннотация. В данной статье подробно рассматриваются фразеологические единицы, их роль в лингвистике, выразительная структура выражений, а также характер использования фразеологических единиц в узбекском языке при составлении эпосов. В качестве основы для анализа эпоса используется известный узбекский народный героический эпос «Алпомиш». Кроме того, встречающиеся в эпосе выражения разделены на типы по форме и значению слов и проанализированы на примерах.

Ключевые слова: Фразеологическая единица, культурология, менталитет, sema, образность, эпос, семиотика, синоним, омоним, антоним, пароним.

Abstract. This article provides a detailed discussion of phraseological units, their role in linguistics, the expressive plan of expressions, as well as the nature of the use of phraseological units used in the Uzbek language in the composition of epics. The article also uses the famous Uzbek folk heroic epic "Alpomish" as a basis for analyzing the epic. In addition, the expressions found in the epic are divided into types according to the form and meaning of the words and analyzed using examples.

Keywords: Phraseological unit, culturology, mentality, sema, imagery, epic, semiotics, synonym, homonym, antonym, paronym.

Kirish. Til – inson hayotining ajralmas bo‘lagi bo‘lib, u jamiyat o‘tmishi, uning kelib chiqish jarayonlari, uzoq yillik tajribasi, qadimiy an‘analari, tarixan boyligi va ma’naviy taraqqiyotini o‘zida jamlaydi. U inson tafakkuri va ongining murakkab ifodasi bo‘lib, nafaqat muloqot vositasi, balki leksik va grammatik birliklar yig‘indisi, barqaror hamda ma’lum obrazli komponentlarni o‘z ichida jamlay olish xususiyati bilan xarakterlanadi. Mana shu jarayonning muhim va o‘ziga xos qatlamlaridan biri frazeologizmlar bo‘lib, ular orqali xalqning dunyoqarashi, mentaliteti, obrazlilik darajasi va ma’lum qatlamlarini ifodalash mumkin. Bu haqida olimlar: “Tilning frazeologik tarkibi – ko‘zgu bo‘lib, unda lingvomadaniy jamoa o‘zining milliy anglashini identifikatsiyalaydi. Frazeologik birliklar xalq donishmandligi, etnosning qadriyatlar olami manzarasi muhrlanib qolmasdan, presmetlarning zohiriy tartibi hamda inson botiniy olami haqidagi faol va passiv bilimlar yig‘indisi aforistik shaklda ifodalanadi”, - deya fikr bildiradi. [1]

Bundan tashqari frazeologizmlar tilning lug‘at boyligi, kulturologik jihatlarini ham aks ettira olishi bilan boshqa biliklardan ajralib uradi. Bu haqida N.I.Tolstoy “Frazeologizmlar - milliy madaniyat, psixologiya va falsafaning ko‘zgusi”, deydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Frazeologizmlar o‘z tarkibidagi so‘zlarning ma‘no jihatidan birikish usuli bo‘lib, shu bilan birga iboralar tarkibidagi komponentlar ma‘no mustaqilligini yo‘qotgan, yaxlit semantik birlikka aylangan tilshunoslik birligi hisoblanadi. Frazalar semiotik birlik sifatida murakkab belgilar majmuasidir. Chunki ular nafaqat nominativ funksiya bajaruvchi, balki emotsional-ekspressivlik jihatidan mukammalligi bilan alohida ahamiyatli. Sh. Rahmatullayev “Nutqimiz ko‘rki” asarida: “Bittadan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilish jihatdan birikmaga, gapga teng, mazmunan so‘zga ekvivalent, yaxlitligicha ustama ko‘chma ma‘no anglatuvchi lug‘aviy birlikka ibora (frazeologik birlik) deyiladi. Bu o‘rinda “lug‘aviy birlik” deyish bilan iborani erkin bog‘lanmadan, “bittadan ortiq” deb ta’kidlash bilan sodda so‘zlardan, “leksik negizlar” deb ta’kidlash bilan analitik formadan, “birikma, gapga teng” deb ta’kidlash bilan qo‘shma so‘zlardan, “yaxlitligicha ko‘chma ma‘no”, - deb ta’kidlash bilan to‘g‘ri ma’noli turg‘un birikmadan farqlaymiz”. [2]

Tadqiqot metodologiyasi. Frazeologizmlar nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslikning ham muhim ifoda plani hisoblanadi. Boisi asar tili va nutqiy jarayonlarida iboralarning qo‘llanishi uning badiiyligi va saviyasini oshirishda turtki beradi. Buning natijasida asar tilining emotsional-ekspressivlik darajasi, davr kolariti va saviyasi ortib boradi. Ayniqsa, boshqa adabiy turlarga nisbatan eposlarda bu daraja yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘zbek xalq ertaklari, masal, rivoyatlar, ayniqsa xalq dostonlari tarkibida bu kabi birliklarning eng sara namunalari uchrab, buning natijasida asarlarning o‘qishlilik darajasini ortib boradi. “Frazeologik birliklar (FB) til egasi bo‘lgan xalqning ma‘naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash sharoiti, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog‘liqdir. FBlar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi muhim vositalar bo‘lib, ular nutqning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbek xalq dostonlari matnida qo‘llangan FBlarining lingvostatistik aspektida tadqiq etilishi folklor tili bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy va amaliy masalalrini hal etishda yordam beradi”. [3]

Jumladan, o‘zbek xalq eposlari tarkibida frazalar ko‘p qo‘llangan bo‘lib, “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Oshiq g‘arib va Shoxsanam”, “Shirin va Shakar”, “Sayyod va Hamro”, “Malikayi ayyor”, “Oysuluv”, “Ravshan”, “Rustamxon” va “Go‘ro‘g‘li” tarkibidagi dostonlarning har bir yozilgan variantlarida frazeologizmlarning ko‘plab namunalari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bugun tilshunoslarimiz tomonidan aynan dostonlar tarkibida iboralarning qo‘llanishiga doir ko‘plab tadqiqot ishlari, monografiya, ilmiy ish, dissertatsiya va to‘plamlar nashr qilingan. Bundan tashqari, qator lug‘atlar ishlab chiqilib, mazkur kitoblarda mualliflar dostonlar tarkibida uchraydigan iboralarni o‘rganish barobarida ularning chastotali lug‘atlarini ham ishlab chiqishdi. Ushbu lug‘atlar B.

Yo'ldoshov, D. O'rinboyeva, Sh.Rahmatullayevlar, J. Eshbayev, Q. Bekniyozov kabi olimlar tomonidan tuzilgan.

Jumladan, "Alpomish" dostoni xalq ijodining eng yirik va mukammal dostonlari bo'lib, uning juda ko'p variantlari mavjud. Xususan, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Muhammad Jonmurod o'g'li Po'ltan, Berdi baxshi, Bola baxshi, Saidmurod Panoh o'g'li kabi qator baxshilar dostonning bir-biriga o'xshash turli variantlarini tahlil qilishadi. Ushbu maqolada dostonning Fozil Yo'ldosh o'g'li tomonidan yozilgan varianti mavzuning obyekt sifatida tanlab olingan.

Tahlil va natijalar. Dostonlar tarkibida iboralarning qo'llanishi qator maqsadlarni qamragan. Xususan:

1. Badiiy obrazlilikni kuchaytiradi: **Boshi ketmoq** – o'ldirmoq ma'nosida.

"Qo'ng'irotning xoni ham zindonda yotibdi, buning bilan tug'ishgan yo akasi, yo ukasi bo'lsa, shunday odamning yo'lda boshi ketsa ham, bir yo'qlab kelar edi. (A. 221)

It yiqilish bo'lmoq – beixtiyor ravishda odatdagi holatdan boshqa holatga kirish. "Biy bobomning o'g'li tushimga kiribdi, ikkovimiz bir erda o'tiribmiz, pok bo'lmasa, it yiqilish bo'laylik deb qolibmiz, ancha gaplashibmiz, - deb vaqti xush bo'lib o'tiribdi". (A. 89).

2. Qahramon shaxsiyati va uning ruhiy holatini oydinlashtiradi: **Dami baland**- o'ta darajada nafasi o'tkir mulla yoki ortiq darajada g'ururli ma'nosida: "Bu so'zni eshitib, Ko'kaldosh alp o'rnidan turib aytdi: - o'zbek qizining dami baland ekan". (A. 66)

Hadisga balo – har xil rivoyat, hikoyani ko'p biladigan, gapga chechan. Bul o'zbek hadisga balodi". (A. 158)

3. Milliy koloritni bildiradi: **Olchi-chikka bo'lmoq** – ishi chappasiga ketmoq ma'nosida. "Gohi olchi bo'lsa qohlarda chikka". (A. 92)

Sabil bo'lmoq – egasiz, qarovsiz qolib xarob bo'lmoq. "Sabil qilib ketay boysin elini". (A.12)

4. Asar badiiy ta'sir kuchini oshiradi: **Og'ziga qum qo'yilmoq** – gapira olmaslik: "Ilohim qum qo'yilsin og'zingga". (A. 111)

Qo'shqanotning quyruq'ini suzdirmoq- qilgan ishiga pushaymon qildirmoq. "Qo'shqanotning quyruq'ini suzdirdi ne ajab. (A. 171).

5. Nutqni ixcham va mazmunli qiladi. **Muztar bo'lmoq** – nochor bo'lmoq, faqir holga kelib qolmoq, og'ir ahvolga tushib qolmoq. "Hozir muztar bo'ldik qalmoq qo'liga". (A. 65)

Obdol talaganday – top-toza qilmoq. "O'n besh kunlik yo'ldagi maysani obdol talaganday, ilon yalaganday qilib, changini chiqarib, oldi yerning o'tini yeb kelayapti". (A.33)

"Alpomish" dostoni tarkibida uchraydigan iboralar nafaqat qo'llanish jihatidan, balki shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarga bo'lib tahlil qilish o'rinli. Biz esa maqolada mana shu kabi jarayonlarni o'zbek xalq dostoni - "Alpomish" misolida tahlil qilishga

harakat qildik. Tilshunosligimizda soʻzlar shakl va maʼno xususiyatiga koʻra asosiy 4 guruhga – sinonim, antonim, paronim va omonimlarga boʻlinishi maʼlum. Ular tilning boyligi, ifoda planning kengligi, leksik qatlamining koʻplik darajasini bildirib, bunday birliklardan asar tarkibida unumli foydalanish uning oʻqishliligi, muallif qalamining oʻtkirliigi, mahorati va ayniqsa tilimizning jilosini bildirdi. Dostonlarda qoʻllanuvchi iboralar esa yangi va original fikrlarni jamlagan, desak adashmaymiz. Ulardan bir nechtasini shakl va maʼno xususiyatiga koʻra tahlil qilsak:

Sinonimlar - aytilishi va yozilishi turlicha, lekin maʼnolari bir-biriga yaqin yoki aynan oʻxshaydigan birliklarga aytiladi. Ular asosida yuzaga kelgan birlik esa leksik sinonimlar deb yuritiladi. Bunday soʻzlar, odatda, bir turkumga mansub boʻlib, semantik jihatdan bogʻlanish xususiyatiga ega. Lekin iboralar tarkibida bir emas, bir nechta soʻzlar ifodalangan boʻlib, shartli ravishda maʼnolari bir soʻzga teng boʻlgani uchun ularni bemalol sinonim frazalar sifatida tahlil qilish oʻrinli. “Alpomish” dostonida ham sinonim iboralarning koʻplab namunalarini uchratishimiz mumkin. Masalan:

1. Koʻtarilib kirmoq (kibr-u havo bilan yurmoq) – “Koʻtarilib togʻi qalmoq qiladi”. (A. 161)

Koʻgarilib turmoq (bepisandlik, kibr qilmoq) – “Anglamaysan, koʻgarilib turasan. (A.101)

2. Intiq boʻlmoq (sabrsizlik bilan kutmoq, intizor boʻlib qaramoq) – “Gʻoz goʻshiga, bolam, intiq boʻlmagin”. (A. 212)

Intizor boʻlmoq (sabrsizlik bilan kutmoq) – “Farzandim deb men oʻlibman intizor”. (A. 212)

3. Gap tashimoq (maʼlum joyda aytilgan fikrni boshqa yerga yoki kishiga oʻz holicha yoki qoʻshib aytish) – “Shundaygʻachiq gap tashigʻich boʻlasan”. (A.111)

Gap yetaklamoq (aytilgan gapni boshqa yerga yoki kishiga aytish) – “U qurgʻurlar gap yetaklab yurmasin”. (A. 271)

4. Gap boʻlmoq (boshqalarning turli davradagi muhokamasiga tushmoq, el orasida munozara boʻlmoq) – “Bu yurishing elga gap boʻp qoladi”. (A. 174)

Gap elatning ogʻzida yurmoq (odamlar muhokamasiga tushmoq, elda gap boʻlmoq) – “Shul gap elatning ogʻzida yuribdi”. (A. 230)

5. Diqqat boʻlmoq (biror voqeadan taʼbi boʻlinmoq, zerikmoq, siqilmoq) – “Xafalikdan diqqat boʻlib oʻldim man”. (A. 64)

Diqqati oshmoq (biror voqeadan taʼbi boʻlinmoq, zerikmoq, siqilmoq) – “Alpomishning diqqatligi oshib, oʻylanib yurdi”. (A. 186)

Antonimlar – maʼnoviy jihatdan bir-biriga qarama-qarshi, bir turkum doirasida zid boʻlgan soʻzlarga nisbatan aytiladi. Frazemalarda ham antonimlarning koʻplab namunasi koʻrishimiz mumkin. Misol uchun, oshigʻi olcha – ishi oʻngidan kelmaslik, boshi koʻkka yetmoq – yer bilan bir boʻlmoq, qoʻy ogʻzidan choʻp olmagan – yerga ursa koʻkka sapchiydigan, ogʻzi qulogʻiga yetmoq – qovogʻidan qor yogʻmoq, ishga bel bogʻlamoq –

qo‘l qovushtirib o‘tirmoq kabi turg‘un birikmalarni keltirish mumkin. Aslini olib qaraganda, ikki frazeologik antonimlar tarkibidagi so‘zlar orasida bir-biriga ma‘naviy qarama-qarshi so‘z kelmasada, umumiy anglashilgan ma‘no o‘zaro zid bo‘lgani uchun ular antonimik iboralar deb yuritiladi. Xalq dostonlari tarkida ham bu kabi iboralarning bir qanchasini uchratish mumkin. Masalan:

1. Gapni bilmaslik (odatiy suhbat jarayonida erkin gapirolmaslik) – “O‘z elida bir xil gapni bilmagan”. (A.75)

Gapni eplamoq (so‘zga usta, bemalol gaoira olmoq) - “Chechanlar eplaydi gapning epini”. (A. 170)

2. Qo‘lidan ish kelmoq (biror ishga usta, uddasidan chiqmoq) – “Qahrlansang har ish kelar qo‘lingdan” (A.98)

Qo‘lidan kelmaslik (ishni bajara olmaslik, qila olmaslik) – “Sen yolg‘iz – qo‘lingdan nima kelardi”. (A. 66)

3. Muztar bo‘lmoq (nochor bo‘lmoq, qiyin ahvolga tushmoq) – “Hozir muztar bo‘ldik qalmoq qo‘liga”. (A. 65)

Shoy bo‘lmoq (boy bo‘lmoq) – “O‘g‘lining boride kampir shoy ekan” (A. 232)

4. Umid tortmoq (biror nimani amalga oshirishga ishonmoq) – “Umid tortib senga arza qilibdi”. (Alpomish. 74)

Umid uzmoq (ko‘nglidagi oxirgi istakni ham yo‘qotmoq) – “Umid uzib keta bergin qalmoqlar”. (A. 124)

5. Nashalashib qolmoq (kayfiyatini ko‘tarmoq, huzurlanib yayramoq) - “Ikkovlari nashalashib qoldi”. (A. 148)

Nashasi uchmoq (kayfiyati buzulmoq, kayfi uchmoq) – ”Juda ham yozganning nashasi uchdi”. (A. 163)

Bundan tashqari iboralarning omonimligi ham tilimizda uchraydi. Ammo ularning miqdori sinonim va antonim iboralarga qaraganda kamroq qismni tashkil qiladi. Omonim iboralar – shakl jihatdan farqlanmaydigan, ammo boshqa-boshqa mazmunni tashkil qiluvchi birliklardir. Bu kabi iboralarni umumiy kontekstdan ajratib, ma‘naviy xususiyatiga ko‘ra farqlas o‘rinli. Quyida “Alpmish” dostoni tarkibida qo‘llangan omonim iboralarning asl va ko‘chma ma‘nolari misollar yordamida tahlil qilingan.

Boshiga urmoq

Asl ma‘nosi – shaxs yoki narsaning bosh qismiga zarba berish.

Gap: Ota salbiy xulqi uchun o‘g‘lining boshiga urdi.

Ibora sifatida – insonga dakki berish, koyish.

Gap: “Boysarini boshingga urasanmi? – deb o‘rlashib yotdi”.

Botib ketmoq

Asl ma‘nosi – biror narsa yoki suyuqlik ichiga cho‘kmoq.

Gap: Kechagi seldan so‘ng mirzobodliklarning oyog‘i loyga botib ketdi.

Ibora sifatida – biror ishga qattiq sho‘ng‘imoq yoki qarzga kirmoq.

Gap: “So‘zi Alpomishga botib ketadi”. (Alpomish. 142)

Bel boylamoq

Asl ma‘nosi – kishi beliga kamar bilan tang‘ib olishi.

Gap: Jamol polvon sahna aylanishdan avval bel bog‘lab, kurashga hozirlandi.

Ibora sifatida – ma‘lum vazifani bajarishga kirishmoq, sho‘ng‘imoq.

Gap: “Bel boyladim, endi o‘zim borayin”. (Alpomish. 185)

Xulosa. Frazeologik birliklar tilimizning murakkab va keng qatlamli qismi bo‘lib, uni leksik, semantik, grammatik jihatdan tahlil qilish mumkin. Ular hozirda ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilmoqda. Iboralar oddiy tilshunoslik birligi emas, ko‘p qirrali semantik xususiyatga ega til birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababdan iboralar ko‘p aspektli ijtimoiy til hodisasi hisoblanib, ularning semasi murakkab jarayon sifatida tadqiqot talab qilayotgani sir emas. Maqolada esa ularning aynan shakl va ma‘no xususiyatiga ko‘ra turlaridan sinonim, antonim va omonim xususiyatlari semantik jihatdan tahlil qilib o‘tildi.

Iboralar sinonimiya va antonimiyasi til tizimining ma‘noviy boyligi, stilistik jihatdan turli okaraskalari va fikrning emotsional-ekspressivlik darajasini ifodalab keladi. Ayniqsa, ularning xalq tilda yaratilgan “Alpomish” dostoni tarkibida o‘rganish maqsadga muvofiq. Ushbu asarda qo‘llangan iboralar personajlarning ruhiy holati, ularning psixologiyasi hamda mardlik tuyg‘ularini ifodalashda muhim o‘rin egallaydi. Iboralarning xalq tilidan, ayniqsa uning eposlari tarkibida tahlil qilish maqsadga muvofiq. Frazeologik birliklarning xalq eposlari asosida o‘rganilishi nafaqat frazeologiya, semasiologiya, balki etnografiya va adabiyotshunoslik kabi fanlarning tahlili uchun ham muhim ahamiyatga ega jihat ekanligi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Телия В.Н. Русская фразеология: семантико-прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: ЯПК, 1996. - 284с
2. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki. T. 1970. B-56
3. Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. T. 1993. B-3
4. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki. T. 1970. B-56
5. Yo‘ldoshev B. Matnni o‘rganishning lingvostatistik metodlari. S. 2008.
6. Mirzayev T., Eshonqul N., Fidokor S. “Alpomish” dostonining izohli lug‘ati. 2007
7. O‘rinboyev B., Bozorboyev K. “Alpomish” dostoni frazeologizmlarining ta‘biri. S. 1998
8. Yo‘ldoshev B. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlil asoslari. T. 2006
9. Jumayeva Z. Frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik tadqiqi. Dissertatsiya -2021.
10. Fayzullayev R., Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T. 2009
11. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazaologiyasining ba‘zi masalalari. T. 1966
12. X. Razzoqov va b. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T. 1980